https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sattorova Zulayxo Ibroxim qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

sattorovazulayxo0105@gmail.com

NIKOH VA OILA MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA GENDER USTANOVKALARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatda gender ustanovkalarning oila qurish jarayoniga ta’siri yoshlar hayotida muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy va zamonaviy gender qarashlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda ziddiyati nikohga oid qarorlar, er-xotin munosabatlari va oilaviy rollar taqsimotida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada gender ustanovkalarning oilaviy qaror qabul qilish jarayoni, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar va farzandlar tarbiyasiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Yu.E. Alyoshina, L.Ya. Gozman va E.M. Dubovskaya tomonidan ishlab chiqilgan “Oiladagi nikoh rollarining taqsimlanishini diagnostika qilish” metodikasi asosida amalga oshirilib, olingan natijalar yosh oilalarda gender rollarining shakllanishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: gender, gender stereotiplari, gender ustanovkalari, oila, oilaviy ustanovkalar, sotsializatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ГЕНДЕРНЫХ УСТАНОВОК НА ФОРМИРОВАНИЕ БРАКА И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В современном обществе гендерные установки оказывают значительное влияние на процесс создания семьи и проявляются как важный социально-психологический фактор в жизни молодежи. Взаимодействие и противоречия традиционных и современных гендерных представлений

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

формируют новые тенденции в принятии решений о браке, супружеских отношениях и распределении семейных ролей. В данной статье научно анализируется влияние гендерных установок на процесс принятия семейных решений, отношения между супругами и воспитание детей. Исследование проводится на основе методики “Диагностика распределения брачных ролей в семье”, разработанной Ю.Е. Алёшиной, Л.Я. Гозман и Е.М. Дубовской, и полученные результаты обосновывают важность их применения для понимания формирования гендерных ролей в молодых семьях.

Ключевые слова: гендер, гендерные стереотипы, гендерные установки, семья, семейные установки, социализация

PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF GENDER ATTITUDES ON THE FORMATION OF MARRIAGE AND FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation: In modern society, gender attitudes significantly influence the process of establishing a family and represent an important socio-psychological factor in the lives of young people. The interaction and sometimes conflict between traditional and modern gender perspectives give rise to new trends in marital decisions, spousal relationships, and the distribution of family roles. This article scientifically analyzes the impact of gender attitudes on family decision-making, relationships between spouses, and child-rearing practices. The study is based on the methodology “Diagnosis of the Distribution of Marital Roles in the Family” developed by Yu.E. Alyoshina, L.Ya. Gozman, and E.M. Dubovskaya, and the obtained results are argued to be of significant importance in understanding the formation of gender roles in young families.

Keywords: gender, gender stereotypes, gender attitudes, family, family values, socialization

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

KIRISH. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi va samaradorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oilaviy munosabatlar shakllanishida gender ustanovkalarning roli tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda. Gender ustanovkalar - bu shaxsning jamiyatdagi erkak va ayol roli, oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy kutuvlar haqidagi ichki qarashlari va qadriyatlaridir[1,2]. Zamonaviy jamiyatda an’anaviy va yangi qarashlarning uyg‘unligi yoki ziddiyati, shuningdek gender stereotiplari oilaviy qarorlar, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar va nikohga tayyorlanish jarayoniga ta’sir qilmoqda. Shu sababli, gender psixologiyasi nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy stereotiplarning o‘zaro ta’siri ilmiy izlanishlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasida kadrlar tayyorlash, ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni o‘rganish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu konteksda, yosh tadqiqotchilar uchun nikoh va oila munosabatlarida gender psixologiyasini o‘rganish nafaqat ilmiy yangilikni, balki amaliy ahamiyatni ham ta’minlaydi. Ushbu maqola maqsadi nikoh va oila munosabatlarini shakllantirishda gender ustanovkalarning psixologik ta’sirini tahlil qilish, ularning oilaviy qarorlar, er-xotin munosabatlari va jamiyatdagi stereotiplar bilan bog‘liqligini aniqlashdir. Shu bilan birga, maqola ilmiy yondashuv va amaliy ahamiyatni uyg‘unlashtirib, O‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida ijtimoiy soha va ta’lim tizimining ehtiyojlariga moslashtirilgan ilmiy natijalarni taqdim etishga intiladi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda nikoh va oila munosabatlarini shakllantirishda gender ustanovkalarning psixologik ta’sirini aniqlash maqsadida Yu.E. Alyoshina, L.Ya. Gozman va E.M. Dubovskaya tomonidan ishlab chiqilgan “Oiladagi nikoh

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rollarining taqsimlanishini diagnostika qilish” metodikasi qo‘llanildi. Tadqiqotda nikoh va oila munosabatlarini shakllantirishda gender ustanovkalarning psixologik ta’sirini aniqlash uchun psixologik va ijtimoiy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda 18–30 yoshdagi turli ijtimoiy qatlamdan bo‘lgan 100 nafar respondentlar ishtirok etdi. Jumladan: turmush qurmaganlar, nikohda bo‘lganlar, oilaviy mas’uliyatni bajarayotganlar**.** Tadqiqot kvantitativ tahlil qilindi, ya’ni so‘rovnoma natijalari SPSS 26.0 dasturida statistik jihatdan tahlil qilindi: o‘rtacha ko‘rsatkichlar, dispersiya, korrelyatsiya va regressiya tahlili qo‘llanildi.

NATIJALAR

Gender ustanovkalarning oila qurishga ta’sirini aniqlash maqsadida Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, E.M.Dubovskayalar tomonidan ishlab chiqilgan “Oiladagi nikoh rollarining taqsimlanishini diagnostika qilish” metodikasidan foydalanildi. Bunda maktab va texnikum bitiruvchilaridan oila qurishda gender ustanovkalarning ta’siriga aloqador bo‘lgan ta’kidlarga javob berish so‘raldi va natijalar tahlil qilindi.

1-jadval

Oiladagi nikoh rollarining taqsimlanishi

(jinsiy farq bo‘yicha)

Shkala	Jins	N	M	Std.og‘ish	T	P
Bola tarbiyalash	erkak	17	2,4294	0,6008	-0,424	0,673
	ayol	63	2,4889	0,48829		
Moddiy ta’minlash	erkak	17	1,79	0,638	1,97	0,05
	ayol	63	1,6	0,427		
Oiladagi hissiy muhitni ta’minlash	erkak	17	2,84	0,542	3,893	0
	ayol	63	2,27	0,531		
Dam olishni tashkil etish	erkak	17	2,55	0,491	-1,98	0,05
	ayol	63	2,8	0,576		
Er-xotinning rollari	erkak	17	1,71	0,764	0,37	0,713
	ayol	63	1,65	0,539		
Jins sifatida intilish	erkak	17	2,07	0,746	1,99	0,05

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

	ayol	63	1,82	0,583		
Oilaviy submadaniyatning tashkilotchisi	erkak	17	2,04	0,558	0,555	0,58
	ayol	63	1,95	0,57		

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Moddiy ta’minlash” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarda jinsiy tafovut kuzatilmoqda. O‘spirin-yigitlar moddiy qadriyatlarga ko‘proq ahamiyat berar ekanlar, ular uchun moddiy barqarorlik, moliyaviy mustaqillik yoki ta’minotchi bo‘lish kabi rollar muhimroq. Ularda bu qadriyatga nisbatan fikrlar ancha farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, ayrim o‘spirin-yigitlar buni juda muhim deb hisoblaydi, boshqalari esa unchalik emas[9]. Shuningdek, o‘spirin-yigitlarning yarmi bu qadriyatni deyarli maksimal darajada muhim deb baholagan. O‘spirin-yigitlar guruhida ifodalangan iqtisodiy tamoyillar erkaklik roli bilan bog‘liq. Bu gender roli doirasida erkakdan moliyaviy yetakchilik, resurs bilan ta’minlash kutilganini ko‘rsatadi.

O‘spirin-qizlar uchun moddiy qadriyatlar erkaklarnikiga qaraganda kamroq ahamiyatli. Bu ularning oilaviy yoki hissiy qadriyatlarga ko‘proq urg‘u berishini ko‘rsatishi mumkin. O‘spirin-qizlar orasida bu qadriyatga nisbatan barqaror va o‘xshash fikrlar mavjud. Ko‘pchilik bu qadriyatni o‘rtacha yoki undan past baholagan bo‘lishi mumkin. O‘spirin-qizlar moddiy tamoyilga nisbatan kamroq moyil, balki ularning qadriyat tizimida hissiy yaqinlik, ishonch, barqarorlik kabi omillar ustun turadi. Bu shuningdek, qizlarning ijtimoiy rolida moliyaviy mas’uliyat ikkinchi darajada bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, yigitlar moddiy tamoyilni ko‘proq qadrlaydi. Bu farq an’anaviy gender rollar (erkak – ta’minotchi, ayol – oila muhofazachisi) bilan izohlanadi. Ushbu tavsif gender stereotiplarini, oila ichidagi rollarni va qaror qabul qilish jarayonlarini psixologik tahlil qilishda muhim[8].

“Oiladagi hissiy muhitni ta’minlash” shkalasi bo‘yicha natijalardagi jinsiy tafovut shuni ko‘rsatadiki, yigitlar uchun oiladagi hissiy muhit katta ahamiyatga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ega**.** Yigitlarning yarmi bu qadriyatni eng yuqori darajada muhim deb baholagan va ular orasida bu qadriyatga barqaror ijobiy munosabat bor. Zamonaviy erkaklar, oilaviy hissiy barqarorlikka va iliq muhitga katta ahamiyat bera boshlaganlar. Bu erkaklar o‘zlarining hissiy ehtiyojlarini anglayotganidan va ular ham oilada ijobiy psixologik muhit yaratilishiga mas’ul ekanini tan olayotganidan dalolat beradi.

Qizlar bu qadriyatni muhim deb bilishsa-da, erkaklarga qaraganda unchalik baland baholamaganlar. Ular bu qadriyatni tabiiy holat deb hisoblashlari mumkin, shuning uchun ular uni “alohida qadriyat” sifatida ajratib ko‘rsatmaydilar. Ayollar uchun hissiy muhitni ta’minlash ko‘pincha o‘z-o‘zidan bajarilishi kerak bo‘lgan normal vazifa deb qabul qilinadi, bu esa bahoni biroz pastlatgan bo‘lishi mumkin.mBu natijalar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda erkaklar va ayollar oila ichidagi hissiy mehnat mas’uliyatini qayta ko‘rib chiqmoqda. Erkaklarning bu sohadagi o‘sib borayotgan hissasi ijobiy ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlardan dalolat beradi[3].

Dam olishni tashkil etish shkalasidagi farqli ko‘rsatkichni quyidagicha izohlash mumkin: yigitlar uchun dam olishni tashkil etish muhim, lekin mutlaq ustuvor emas. respondentlar fikrlarining nisbatan bir xilligini bildiradi. Bu natijalar yigitlarning oila yoki jamoadagi bo‘sh vaqtni rejalashtirish, ko‘ngilochar faoliyatni tashkil qilish vazifalarini ko‘proq bajarayotganini yoki bu rolni o‘z zimmasiga olishga tayyorligini ko‘rsatadi. Demak, yigitlar bunday faoliyatda qatnashishni istaydi, ammo bu ularda ijtimoiy rol yoki qadriyat sifatida hali ham ikkinchi darajada turadi. Shunga qaramay, zamonaviy oilalarda erkaklar bu borada faolroq bo‘layotganini anglatadi. Qizlar bu mezonni yuqoriroq baholaganlar. Ya’ni, ular uchun dam olishni tashkil etish juda muhim qadriyat hisoblanadi. Ayollar ko‘pincha oilaviy tadbirlar, sayohatlar, bayramlar, bolalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda bosh rolni o‘z zimmasiga olishadi. Demak, qizlar bu faoliyatni oila muhitining bir qismi, mehr va g‘amxo‘rlik ifodasi deb biladi. Dam olishni tashkil etish orqali ular hissiy bog‘liqlikni kuchaytiradi va oilaning ijtimoiy sog‘lomligini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayollar dam olishni tashkil etishga erkaklarga qaraganda ko‘proq ahamiyat beradi. Erkaklar esa bu faoliyatga nisbatan ko‘proq ishtirokchi emas, balki yordamchi rolni bajarishga moyil bo‘lishi mumkin. Bu natijalar gender rollarining o‘zgarishini, ayollarning ijtimoiy faolligi yuqoriligini va hissiy ehtiyojlarga nisbatan sodiqligini ko‘rsatadi[7].

“Jins sifatida intilish” shkalasidagi tafovut yigitlar jins sifatida o‘z rolini anglash va unga intilishda ancha faolligidan dalolat beradi. Ular o‘z erkaklik atributlarini (mas’uliyat, kuch, mustaqillik va h.k.) qadrlashadi va uni o‘z shaxsiyati bilan bog‘lashadi. Bu mezon bo‘yicha erkaklar orasida fikrlar farqi bor ba’zilari o‘z jinsiy identifikatsiyasini faol qabul qilsa, boshqalarda bu nisbatan zaifroq ifodalangan. Ko‘pchilik erkaklar bu mezonni yuqori baholagan, ya’ni jinsiy o‘zlikka sodiqlik mavjud[10]. Demak, erkaklar jins sifatida o‘z roli va ijtimoiy kutuvlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni izlaydi. “Jins sifatida intilish” erkaklarda o‘zini isbotlash, ijtimoiy maqom topish yoki o‘zini jamiyatda to‘g‘ri tutish zarurati bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayollar uchun jins sifatida intilish muhim bo‘lsa-da, erkaklarnikiga nisbatan bu ko‘rsatkich pastroq. Bu ayollar jinsiy rolining ifodasi va jamiyatdagi stereotiplarga nisbatan mo‘tadil yondashadi degani bo‘lishi mumkin. Ayollar orasida bu qarashlar nisbatan barqaror. Bu shuni anglatadiki, ko‘pchilik ayollar o‘z jinsiy roli haqida o‘xshash fikrda. Demak, ayollarda jinsiy identifikatsiya ko‘proq ichki ongda, hissiylikda ifodalanadi. Ular bu roldan ko‘pincha ijtimoiy bosim emas, balki tabiiylik nuqtayi nazaridan yondashadi[5]. Shuningdek, ayollar jamiyatdagi jinsga oid stereotiplarga tanqidiyroq qarashi mumkin.

Erkaklar jins sifatida o‘zlarini faolroq anglaydilar, bu ularning o‘ziga xos ijtimoiy rol va kutuvlar bilan moslashish istagini bildiradi. Ayollar esa jinsiy identifikatsiyani hissiy va tabiiy asosda anglaydi, ularning roli jamiyat bosimidan ko‘ra, shaxsiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tahlil gender stereotiplari va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

shaxsiy identifikatsiya o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi[6].

MUHOKAMA VA XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsning genderga oid qarashlari, erkaklik va ayollik haqidagi ijtimoiy tasavvurlari nikohga yondashuv, oila qurish motivatsiyasi, rollar taqsimoti va oilaviy barqarorlikka sezilarli darajada ta’sir qiladi. Bu natija ilgari olib borilgan psixologik tadqiqotlar bilan uyg‘un bo‘lib, gender ustanovkalarning oilaviy qarorlar qabul qilish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Moddiy ta’minlash, oiladagi hissiy muhit, dam olishni tashkil etish, jins sifatida intilish va er-xotinning rollarini qabul qilish kabi omillar gender qarashlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa gender rollari shunchaki madaniy yoki an’anaviy tushunchalar emas, balki oilaviy munosabatlarning ichki mexanizmlarini belgilovchi psixologik kuchli omillar ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, erkak va ayollar o‘rtasidagi farqlar genderga asoslangan sotsiokulturniy omillar bilan izohlanadi: ayollar oiladagi hissiy muhitga, erkaklar esa moddiy ta’minlashga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu xulosa oila barqarorligi va nikohdagi roldagi faollikni tahlil qilishda gender psixologiyasini hisobga olishning ahamiyatini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreeva GM. Социальная психология. M.: 1996.
2. Andreeva GM. Психология социального познания: Учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. M.: Aspekt Press; 2000.
3. Chodorow N.J. Family Structure and Feminine Personality: The Reproduction of Mothering [PhD]. Brandeis University; 1975.
4. Oakley A. Gender, methodology and people’s ways of knowing: some problems with feminism and the paradigm debate in social science. 1998.
5. Qurbonova Z. Oila va gender ijtimoiylashuvi jarayoni. Pedagogika va psixologiya muammolari. 2022;(1).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

6. Sattorova ZI. Gender ustanovkalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Farg‘ona: 2025.
7. Ahmedova N. Oila psixologiyasi. Toshkent: Ma’naviyat; 2021.
8. Yusupova M. Oiladagi gender tenglik munosabatlarining oila barqarorligiga ta’siri. Ustozlar uchun. 2025;85(6):353-363.
9. Regan K. Gender role orientation and relationship maintenance in families. Int J Psychol Educ Stud. 2023;10(3):667-680.
10. Parents’ Gender Role Attitudes and Child Adjustment: The Mediating Role of Parental Involvement.. 2023;89:425-441.
11. Bahodirova S.R., Talipova FT. Oiladagi munosabatlar va uning psixologik xususiyatlari. TADQIQOTLAR. 2025;72(1):72-75.